

MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGI VA YASHIRIN IQTISODIYOT O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Pirnafasov S.B,

“Ma'mun Universiteti” Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18030037>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotni ulushini yuqoriligi mintaqaning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'siri va uning oqibatlari bayon qilingan. Yashirin iqtisodiyotning o'sishi fiskal barqarorlikka, investitsiya muhitiga, bandlik tizimiga va ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, yashirin iqtisodiyot, fiskal siyosat, ijtimoiy infratuzilma, bandlik.

Аннотация. В статье рассматривается негативное влияние высокой доли теневой экономики на экономическую стабильность региона и его последствия. Анализируется влияние роста теневой экономики на фискальную стабильность, инвестиционный климат, систему занятости и развитие социальной инфраструктуры.

Ключевые слова: экономическая стабильность, скрытая экономика, фискальная политика, социальная инфраструктура, занятость.

Abstract. This article describes the negative impact of the high share of the shadow economy on the economic stability of the region and its consequences. It examines how the growth of the shadow economy affects fiscal stability, the investment climate, the employment system, and the development of social infrastructure.

Key words: economic stability, shadow economy, fiscal policy, social infrastructure, employment.

Mintaqa iqtisodiyoti barqarorligi va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda dolzarb masalalardan biridir. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ko'p jihatdan iqtisodiyot yo'nalishlari hamda sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini barpo etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bevosita bog'liq. Shu bois mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning tarmoqlari rolini, ayniqsa, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.¹ Mintaqa iqtisodiyoti barqarorligi – iqtisodiy o'sishning izchilligi, fiskal intizomning mustahkamligi, investitsiya oqimlarining barqarorligi va aholi farovonligining yuksalishi bilan belgilanadi. Biroq ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar singari, O'zbekiston mintaqalarida ham yashirin iqtisodiyot miqyosi iqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Yashirin iqtisodiyot rasmiy statistikani buzadi, soliqqa tortish bazasini qisqartiradi, raqobatni izdan chiqaradi va mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Mintaqa iqtisodiyoti barqarorligi hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, investitsion jozibadorlik, bandlik darajasi va fiskal barqarorlik kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Biroq ko'plab mintaqalarda iqtisodiy jarayonlarning to'liq va aniq baholanishiga yashirin iqtisodiyotning mavjudligi sezilarli to'sqinlik qiladi.

Yashirin iqtisodiyot hajmini hisoblash qiyin. Chunki, yashirin faoliyat bilan shug'ullanadigan odamlar o'zlarini oshkora qilmasliklari uchun qo'llaridan kelganini qiladilar.

¹ <https://xs.uz/> sayti ma'lumoti

Ammo siyosatchilar va hukumat ma'murlari resurslarni taqsimlash bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilishlari uchun yashirin iqtisodiyotda qancha odam faol ekanligi, yashirin faoliyat qanchalik tez-tez sodir bo'lishi va bu faoliyat hajmi haqida ma'lumotga muhtoj². Vito Tanzi (1999) yashirin iqtisodiyot miqyosini baholashda qo'llaniladigan metodlar ko'pincha noto'g'ri talqin qilinishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda esa haddan tashqari soddalashtirilgan yoki shishirilgan raqamlar ishlatilishini tanqid qiladi. Muallif yashirin sektorni aniqlashni murakkab, ko'p qirrali jarayon deb baholaydi.³ Iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi yashirin iqtisodiyotni sezilarli qisqartirishi aniqlangan:

- Elektron hukumat, raqamli soliq tizimlari, onlayn nazorat mexanizmlarining kengayishi yashirin faoliyatni aniqlashni osonlashtiradi;
- Soliq ma'murchiligining soddalashtirish tadbirkorlarni rasmiy sektorga o'tishga undaydi.
- Hududiy infratuzilmaning yaxshilanishi, bandlik dasturlarining kengayishi aholining norasmiy mehnatga kirish ehtiyojini kamaytiradi.

Mintaqa iqtisodiy barqarorligi va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: bir tomondan, yashirin iqtisodiyot iqtisodiy barqarorlikni izdan chiqaruvchi omil bo'lsa, ikkinchi tomondan, barqaror iqtisodiy tizim yashirin faoliyatni kamaytiruvchi hal qiluvchi shart hisoblanadi. Mazkur o'zaro ta'sirni chuqur o'rganish hududiy siyosat, fiskal islohotlar va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. 2017-2022 yillar davomida viloyat yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) hajmi 32 foizga oshib, 32,0 trln so'mni tashkil etdi va aholi jon boshiga 16,5 mln so'mdan to'g'ri keldi. Hisobot davrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 4,1 trln so'mdan 18,3 trln so'mga (o'sish 1,7 baravar) oshdi va YaHMDagi ulushi 16,6 foizdan 21,3 foizga yetdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 1,7 baravarga, ya'ni 9,4 trln so'mdan 24,6 trln so'mga yetdi.⁴ Ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 20,2 mingdan 31,0 mingga yetdi va 1,5 baravarga oshdi. Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rsak bo'ladiki, mintaqada yashirin iqtisodiyotni kamaytirish iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun asos bo'ladi.

Xulosa.

Tahlillarimizga ko'ra, 2019 yilda yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,11 foizni tashkil etgan bo'lsa, olib borilgan islohotlar natijasida o'tgan yilda uning ulushi 40 foizgacha qisqarganligini ko'rishimiz mumkin⁵. Bunda asosan 2019-2022 yillarda olib borilgan soliq-bojxona islohotlari, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi chora-tadbirlar, biznesni qo'llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan maqsadli tashabbuslarning amalga oshirilganligi va raqamli transformatsiyalarning keng ko'lamda joriy etilayotgani sabab bo'lmoqda.

Quyidagi takliflar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga va barqaror iqtisodiyotga erishishga xizmat qiladi:

² Friedrich Schneider & Dominik H. Enste Hiding in the Shadows The Growth of the Underground Economy International Monetary Fund March 2002

³ Tanzi, V. (1999). "Uses and Abuses of Estimates of the Underground Economy." *The Economic Journal*

⁴ <https://review.uz/> sayti ma'lumoti

⁵ <https://uza.uz/> sayti ma'lumoti

- shaxslarning norasmiy iqtisodiyotda ishtirok etishdan qaytaruvchi choralarni qo'llash maqsadida ijtimoiy ta'minot tizimlarini takomillashtirish va shu orqali badallarni to'lamaslikdan qochishni oldini olish;

- naqd pul bilan savdo qilishda maksimal chegaraviy qiymatni belgilash;

- yashirin iqtisodiy faoliyat haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish tizimi huquqiy asoslarini yaratish;

-korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobini to'g'ri nazorat qilish maqsadida ichki nazorat tizimini mukammal ishlab chiqish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://xs.uz/> sayti ma'lumoti
2. Friedrich Schneider & Dominik H. Enste Hiding in the Shadows The Growth of the Underground Economy International Monetary Fund March 2002
3. Tanzi, V. (1999). "Uses and Abuses of Estimates of the Underground Economy." The Economic Journal.
4. <https://review.uz/> sayti ma'lumoti
5. <https://uza.uz/> sayti ma'lumoti